



## TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

dots. **Mamatkulova Nadira**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

ORCID: 0000-0003-1401-5142

[n.mamatkulova@taqu.uz](mailto:n.mamatkulova@taqu.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati, ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning nazariy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Investitsiya tushunchasining iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinishi, uning iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy yondashuvlar asosida izohlanishi yoritilgan. Shuningdek, investitsiyalarning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi roli, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani rivojlantirish hamda ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada xorijiy investitsiyalar, xususan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga ta'siri va ularning jalb etilish mexanizmlarining nazariy jihatlarini ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, kapital qo'yilmalar, iqtisodiy o'sish, xorijiy investitsiyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya faoliyati, iqtisodiy rivojlanish, kapital, investitsiya siyosati.

## НАУЧНЫЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

доц. **Маматкулова Надира**

Ташкентский архитектурно-строительный университет

**Аннотация.** В статье исследуются научно-теоретические основы инвестиций, их экономическая сущность и значение в развитии экономики. Рассмотрены различные подходы к определению понятия инвестиций в экономической литературе, а также раскрыта их роль в обеспечении экономического роста. Проанализировано влияние инвестиций на развитие производственного потенциала, создание новых рабочих мест, развитие инфраструктуры и ускорение научно-технического прогресса. Особое внимание уделено анализу сущности и особенностей прямых иностранных инвестиций, а также их роли в экономическом развитии.

**Ключевые слова:** инвестиции, капиталовложения, экономический рост, иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, инвестиционная деятельность, экономическое развитие, капитал.

## SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT AND ITS IMPORTANCE FOR ECONOMIC DEVELOPMENT

assoc. prof. **Mamatkulova Nadira**

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering

**Abstract.** *This article analyzes the scientific and theoretical foundations of investments, their economic essence and their role in economic development. Different approaches to defining investments in economic literature are examined, and the importance of investments in ensuring economic growth is highlighted. The study also analyzes the role of investments in increasing production capacity, creating employment opportunities, developing infrastructure and promoting scientific and technological progress. Particular attention is given to the essence and characteristics of foreign investments, especially foreign direct investment (FDI), and their contribution to economic development.*

**Keywords:** *investment, capital investment, economic growth, foreign investment, foreign direct investment, investment activity, economic development, capital.*

### **Kirish.**

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Har qanday mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda infratuzilmani rivojlantirishda investitsiyalarning roli beqiyosdir. Ayniqsa globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi sharoitida investitsiya jarayonlarini samarali tashkil etish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot muammosi shundan iboratki, iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalarning mazmun-mohiyati turli iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini hamda nazariy asoslarini kompleks tarzda tahlil qilish zarurati mavjud. Shuningdek, global iqtisodiy integratsiya sharoitida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- investitsiya tushunchasining nazariy talqinlarini o'rganish;
- investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini tahlil qilish;
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy xususiyatlarini aniqlash;
- investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini baholash.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Investitsiyalarning nazariy asoslari ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, klassik iqtisodiy maktab vakillari investitsiyalarni kapitalning ko'payishi va ishlab chiqarish vositalarining jamg'arilishi bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qilganlar. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar ko'pincha kelajakda daromad olish maqsadida bugungi iste'moldan voz kechish sifatida izohlanadi.

Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar alohida iqtisodiy kategoriya sifatida o'rganilgan. Garvard universiteti professori Kennet Frutning fikriga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar transchegaraviy operatsiyalar bo'lib, ular orqali investor boshqa mamlakatdagi ishlab chiqarish aktivlari ustidan nazoratni qo'lga kiritadi.

Kornell universiteti olimlari A.Razin va E.Sadka xorijiy investitsiyalarni ikki asosiy turga — to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalariga ajratadilar. Ularning ta'kidlashicha, to'g'ridan-

to'g'ri xorijiy investitsiyalar investorning boshqa mamlakatdagi korxonalar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Amerikalik mashhur iqtisodchi Mankiw (2021) investitsiyani kelajakda ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun kapital tovarlarni sotib olishga yo'naltirilgan xarajatlar sifatida izohlaydi. Bu ta'rif investitsiyaning makroiqtisodiy mohiyatini ochib beradi va u ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Moliyaviy investitsiyalar nazariyasining yetakchi vakillari Bodie, Kane va Marcus (2022) investitsiyani kelajakda daromad yoki kapital qiymatining oshishini kutgan holda bugungi resurslarni turli aktivlarga joylashtirish jarayoni sifatida ta'riflaydilar. Ushbu ta'rif investitsiya jarayonining vaqt omili va daromadlilik bilan bog'liqligini ifodalaydi.

Moliyaviy menejment nazariyasida Brealey, Myers va Allen (2020) investitsiyani kelajakda pul oqimlarini olish maqsadida kapitalni real yoki moliyaviy aktivlarga joylashtirish jarayoni sifatida izohlaydilar. Bu yondashuv investitsiyalarni korporativ moliya nuqtai nazaridan tushuntiradi.

Nobel mukofoti sovrindori Fama (2013) investitsiyani moliyaviy aktivlarga kapital joylashtirish orqali kelajakda daromad olish imkoniyatini yaratish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Olimning ta'kidlashicha, investitsiya jarayonida kapital bozorlarining samaradorligi muhim rol o'ynaydi.

Portfel investitsiyasi nazariyasining asoschisi Markowitz (1959) investitsiyani risk va kutilayotgan daromad o'rtasidagi muvozanatni hisobga olgan holda kapitalni turli aktivlar o'rtasida taqsimlash jarayoni sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv zamonaviy investitsiya nazariyasining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar ham xorijiy investitsiyalar tushunchasiga turlicha ta'rif bergan. Masalan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni investorning boshqa mamlakatdagi korxonalar faoliyati ustidan uzoq muddatli nazoratni amalga oshirish maqsadida kiritiladigan investitsiyalar sifatida tavsiflaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usullari qo'llanildi.

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini o'rganishda iqtisodiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlari ham tadqiqot manbasi sifatida foydalanildi.

Tahlil jarayonida investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholashda statistik ma'lumotlardan foydalanildi hamda ularning dinamikasi iqtisodiy tahlil usullari asosida o'rganildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Hozirgi kunga qadar investitsiyalarning mazmuni va mohiyati ushbu sohada chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan va borayotgan, investitsiyalar bo'yicha ko'plab darslik va o'quv qo'llanmalar muallifi hisoblangan taniqli iqtisodchi-olimlar tomonidan turlicha tarzda e'tirof etib kelinmoqda.

Mashhur iqtisodchilar Krugman va Obstfeld (2018) investitsiyani iqtisodiyotda kapital zaxirasini oshirishga qaratilgan xarajatlar sifatida ta'riflaydilar. Ularning fikricha, investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Makroiqtisodiyot nazariyasi bo'yicha taniqli olim Blanchard (2021) investitsiyani firmalar tomonidan ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va kapital fondini oshirish maqsadida amalga oshiriladigan xarajatlar sifatida izohlaydi.

Shuningdek, iqtisodchi olim Stiglitz (2019) investitsiyani iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi kapital qo'yilmalar sifatida tavsiflaydi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya tushunchasi turli yondashuvlar asosida talqin qilinsa-da, ularning umumiy jihati kapitalni kelajakda daromad olish yoki iqtisodiy samaraga erishish maqsadida turli aktivlarga joylashtirish jarayoni ekanligidir.

- "investitsiya – bu daromad olish maqsadida moddiy va nomoddiy obyektlarga joylashtiriladigan qo'yilmalardir" (Askinadzi, 2019);

- "foйда (daromad) olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida pul mablag'lari, maqsadli bank omonatlari, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, lisenziyalar, kreditlar, boshqa har xil mulklar yoki mulkiy huquqlar hamda intellektual boyliklarni tadbirkorlik va faoliyatning boshqa turlari obyektlariga qo'yilishining barchasi investitsiyalar hisoblanadi" (Malikov va Olimjonov, 2019).

Investitsiyalarning mohiyati O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida, O'zbekiston milliy ensiklopediyasida va O'zbek tilining izohli lug'atida ham keltirilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunida investitsiyalarning mohiyati "investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar" mazmunida ifodalangan. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "investitsiya (lot. investio – o'rash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish)dir", deb ta'riflangan. O'zbek tilining izohli lug'atida "investitsiya (nem. investition, lot. investire – kiyintirmoq, sarpo bermoq) mamlakat ichkarisida yoki chet elda foyda ko'rish maqsadida biror korxonaga, iqtisodiyotning muayyan tarmog'iga kapital qo'yish, kiritish va shunday kapitalning o'zi" sifatida tavsiflangan.

Investitsiyalarning mazmun-mohiyatini yoritishda ularning yo'nalishi, joylashuvi, hisobga olinishi va boshqaruvi nuqtai nazaridan yondashish asosida investitsiyalarni tavsiflash yoki ta'riflash maqsadga muvofiqdir. Jumladan, iqtisodiy jihatdan investitsiyalar – bu kapitalni turli xil aktivlarga (asosiy vositalar, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk va h.k.) daromad yoki boshqa samara (masalan, ijtimoiy, ekologik, strategik) olish maqsadida uzoq muddatli qo'yilmalardir. Moliyaviy jihatdan investitsiyalar – bu bo'sh pul mablag'larini kelajakda daromad keltirishi kutilgan aktivlarga joylashtirishdir. Bular aksiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk va boshqalar bo'lishi mumkin. Ijtimoiy jihatdan investitsiyalar inson salohiyatini, ko'nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga hamda nomoddiy boyliklarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan boyliklardir. Buxgalteriya (hisob) nuqtai nazaridan investitsiyalar – bu korxonaning bir necha hisobot davrlarida foyda keltiradigan uzoq muddatli aktivlarni xarid qilishga yo'naltirilgan xarajatlaridir. Makroiqtisodiy yondashuvda investitsiyalar – bu YAIM ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga yo'naltirilgan qismi bo'lib, qurilish, modernizatsiya va uskunalar sotib olishni o'z ichiga oladi. Boshqaruv yondashuvi jihatidan investitsiyalar – bu korxonaning rivojlanishi uchun strategik vosita bo'lib, yuqori rentabellikka ega loyihalarga resurslar kiritilishini, joylashtirilishini nazarda tutadi. Yuqorida qayd etilgan yondashuvlarda investitsiya mazmunining asosiy elementlari sifatida investitsiya obyektlari (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, innovatsiyalar, qimmatli qog'ozlar va h.k.), investitsiya subyektlari (jismoniy shaxslar, kompaniyalar, davlat va boshq.), investitsiya shakllari (real - ishlab chiqarishga va moliyaviy - qimmatli qog'ozlarga hamda intellektual), maqsadlari (daromad olish, kapitalni oshirish, strategik rivojlanish, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va h.k.), risk va daromadlilik darajasi (investitsiyalar tahlili va

investitsiyaviy qarorlar qabul qilish), investitsiya muddati (qisqa, o'рта va uzoq muddatli) muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiyalarning mazmun-mohiyati bo'yicha yuqorida keltirilganlarni tahlil qilish asosida ularga quyidagicha ta'rif berish o'rinlidir: kapital qiymatini saqlash, foyda olish, samaraga erishish maqsadida investorlar tomonidan turli obyektlarga joylashtirilgan barcha turdagi boyliklar va ularga doir huquqlar hamda reinvestitsiyalarga investitsiya deyiladi. Biroq, bu yakuniy ta'rif hisoblanmaydi, chunki investitsiyalarning nazariy asoslarini tadqiq qilishda ungi yangi belgilari, xususiyatlari yuzaga chiqishi mumkin.

Bu yerda shuni alohida qayd etish zarurki, investitsiya yoki xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati bo'yicha ta'rif shakllantirilayotganda "xorijiy" so'zi investitsiyaning mazmuni va mohiyatiga ta'sir ko'rsatmaydi, xorijiy so'zi faqatgina investitsiyalar o'zga mamlakat, o'zga subyekt tomonidan yoki chetdan, chet eldan kiritilishini ifodalaydi, xolos. Lekin, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'siri sezilarli darajada yuqoridir.

Investitsiyalar har qanday iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashda uning rivojlanish darajasidan qat'i nazar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Investitsiyalarning iqtisodiyot rivojidadagi roli – asosiy va ko'p qirralidir. Fikrimizcha, investitsiyalarning har qanday mamlakat iqtisodiy o'sishidagi ahamiyati quyidagi asosiy jihatlar bilan xususiyatlanadi:

1. Mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish. Asosiy vositalarga (binolar, uskunalar, texnologiyalar) investitsiyalar kiritish orqali ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilish mumkin. Bu mehnat unumdorligini va korxonalar faoliyati samaradorligini oshiradi hamda intensivlikni ta'minlaydi. Misol uchun fabrikani zamonaviy uskunalar bilan jihozlash orqali mahsulot chiqarish hajmi ortishiga olib keladi va h.k.

2. Yangi ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy muammolarni ijobiy hal etish. Yangi investitsion loyihalarga, korxonalarga va tarmoqlarga sarmoya kiritish orqali ish o'rinlari yaratiladi va ishsizlik darajasi pasayadi. Masalan, zavod qurilishi – bu qurilish jarayonida ham, ishga tushgandan so'ng ham yuzlab ish o'rinlari demakdir.

3. Aholi turmush darajasini oshirish va hayot sifatini yaxshilash. Investitsiyalarning ortishi yoki ko'payishi natijasida bandlik va aholi daromadi oshadi, iste'molchilik talabi o'sadi, bu esa iqtisodiyotni yanada rag'batlantiradi.

4. Infratuzilmani rivojlantirish. Yo'llar, energetik tarmoqlar va kommunikatsiyalarga davlat va xususiy investitsiyalar kiritish boshqa tarmoqlarning rivojlanishi uchun poydevor yaratadi. Masalan, yo'llar qurilishiga investitsiyalar logistika samaradorligini oshiradi va biznes xarajatlarini kamaytiradi.

5. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni ta'minlash. Innovatsiyalarga, tadqiqot va ishlanmalarga, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga investitsiya kiritish yangi texnologiyalarning yaratilishi va iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshishiga xizmat qiladi.


6. Tashqi investitsiyalarni jalb qilish. Chet el investitsiyalarining oqimi kapital, texnologiya va xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatini yaxshilaydi, raqobatni kuchaytiradi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

7. Hududiy rivojlanishni muvozanatlash yoki hududlarning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash. Oqsoq yoki qoloq yohud iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan rivojlanmagan hududlarga investitsiya kiritish hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutni kamaytiradi.

8. Davlat moliyaviy tizimini mustahkamlash. Investitsiyalar hisobiga iqtisodiy faollikning o'sishi budjetga soliq tushumlarini ko'paytirib, budjet defisitini kamaytiradi va ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda investitsiyalar – iqtisodiy o'sishning drayveridir. Yetarli darajadagi investitsiyalarsiz yoki investitsion faoliyatsiz iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning imkoni mavjud emas.

Investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi yuqorida qayd etilgan o'ri, ahamiyati, afzalliklari, ustuvorligi sabab, O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda investitsiya faoliyatini rivojlantirishda salmoqli ijobiy natijalar qo'lga kiritilmoqda (1-rasm).



**1-rasm. O'zbekistonda 2020-2024-yillarda asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi va o'sish sur'ati dinamikasi**

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2020-2024-yillardagi statistik ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

Xususan, so'nggi besh yil ichida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi ijobiy dinamikani ko'rsatmoqda, bu turdagi investitsiyalar 2020-2024-yillar mobaynida 2,3 barobarga oshgan yoki 283,5 trln. so'mga ko'payib, o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2024-yilda asosiy kapitalga joylashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati 127,6 foizga teng bo'ldi va tahlil qilingan davr oralig'ida 32 foizli bandga oshgan. Bunday holat asosiy kapitalga investitsiyalar, ya'ni yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlarning o'sib borayotganligini bildiradi hamda mamlakatning ishlab chiqarish sohasini modernizatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish nuqtai nazaridan ijobiydir.

Yuqorida qayd etganimizdek, xorijiy investitsiyalarning, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli beqiyosdir.

XIX asrda mamlakatlar iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar muhim o'rin egallagan, biroq bu davrda ular asosan Buyuk Britaniyaning boshqa mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishni moliyalashtirish uchun bergan qarzlari va moliyaviy aktivlar egaligi shaklida namoyon bo'lgan. 1890-yildan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi sanoat mahsulotlari sektoriga to'g'ri kelgan. Iqtisodchi-olimlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jahon iqtisodiyotida yirik trasmilliy korporatsiyalar (TMK)ning shakllanishi bilan bog'laydilar. O'tgan asrning 60-80-yillarida AQSH va Yevropa ittifoqida qudratli TMKlar shakllana boshlagan bo'lsa, 1990-yillardan boshlab yirik korporatsiyalar Janubiy-Sharqiy Osiyo, Janubiy Amerika va Yaqin Sharqning o'sib kelayotgan iqtisodiyotlarida vujudga keldi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati va xususiyatlari ularni jalb qilish mexanizmini takomillashtirishda birinchi navbatda e'tiborga olinishi kerak va ular o'ziga xos tayanch nuqtasi hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mazmun-

mohiyati va xususiyatlari, jalb qilish shakllari jahonning nufuzli universitetlari olimlari, xalqaro moliya institutlari tomonidan turlicha talqin qilingan.

Melburn qirollik texnologiya universiteti (Avstraliya) professori Moosa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning xalqaro oqimi, harakati va sabablarini chuqur o'rgangan. Olimning ilmiy ishlarida, "to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kapitalning bir mamlakat iqtisodiyotdan o'zga mamlakat iqtisodiyotiga risklarni o'z zimmasiga olgan holda foyda olish maqsadida joylashtirilgan investitsiyalar bo'lib, bunda nazorat va boshqaruv huquqining qo'lga kiritilishi uning boshqa turdagi investitsiyalardan farqlab turuvchi asosiy xususiyati" ekanligi asoslab berilgan.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ)ning ta'rifiga ko'ra, "korxonalar boshqaruvini samarali tashkil etishni maqsad qilgan investorning iqtisodiyotidan boshqa iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan korxonalar ustidan nazoratni amalga oshirish, foyda olish va samaraga erishish maqsadida amalga oshiriladigan investitsiyalardir".

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tasnifga ko'ra "to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya sifatida tan olish maqsadida korxonaning ustav fondidagi xorijiy kapital ulushi kamida 10 foiz bo'lishi tavsiya etilgan".

BMTning 1999-yildagi Global investitsiyalar bo'yicha hisobotida "to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – uzoq muddatli munosabatlarni nazarda tutuvchi va bir iqtisodiyotda joylashgan yuridik shaxsning boshqa iqtisodiyotdagi rezident korxonalar ustidan doimiy manfaat va nazoratni ifoda etuvchi investitsiyalar", deb ta'riflangan.

Yuqoridagi ta'riflarning umumiy xususiyati "nazorat", "nazorat paketi" va "boshqaruv huquqi" kabi atamalar bo'lib, bu to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni portfel investitsiyalardan ajratib turadigan eng muhim xususiyatidir, chunki portfel xorijiy investitsiyalar nazoratni yoki uzoq muddatli manfaatli hamkorlikni nazarda tutmaydi. Shunga qaramay, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investorlarning ulushi qancha va nimalardan iborat bo'lishi kerakligi bo'yicha yagona yondashuv yo'q. Biroq, ko'pincha 10 foizdan kam bo'lmagan aksiyalar xorijiy kompaniyani samarali boshqarish va sezilarli darajada ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Masalan, AQSH Savdo Departamenti, agar bitta amerikalik investor qimmatli qog'ozlarning kamida 10 foiziga yoki ekvivalentiga ega bo'lsa xorijiy biznes korxonani AQSHning chet el korxonasi deb hisoblaydi va buni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, deb e'tirof etadi. Ba'zan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati va ularni jalb qilish bo'yicha boshqa ta'riflar ham mavjud. Unga ko'ra, kapital mamlakatdan mezbon mamlakatga o'tkaziladi va bunda xorijdagi investitsiya faoliyati to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyasi hisoblanadi, agar kapitaldagi ma'lum ulush orqali nazorat mavjud bo'lsa va kompaniya aktivlarining, ishlab chiqarish yoki kompaniya savdolarining bir qismi mezbon mamlakatga ko'chirilganda yoki o'tkazilganda. Biroq, fikrimizcha, bunday bo'lmasligi ham mumkin, chunki investitsion loyiha qabul qiluvchi mamlakatda qarz olish orqali moliyalashtirilishi ham mumkin. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – bu bir mamlakat rezidentlari tomonidan boshqa mamlakatdagi (qabul qiluvchi mamlakat) kompaniyaning ishlab chiqarish, taqsimot va boshqa faoliyatini nazorat qilish va foyda olish uchun aktivlarga egalik qilish jarayonini ham anglatadi.

Demak, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning boshqa xalqaro investitsiya shakllaridan farqli jihati – bu boshqaruv siyosati va qarorlariga nazorat o'rnatish elementining mavjudligidir. Fikrimizcha, nazorat investor tomonidan boshqaruv siyosati va strategiyasida muayyan darajadagi mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyati mavjudligini anglatadi va nazorat elementi to'g'ridan-to'g'ri investorlarga xorijiy portfel investorlari va mahalliy investorlar bilan solishtirganda axborot ustunligini beradi. Ko'plab kompaniyalar xorijga investitsiya kiritishga tayyor emaslar, agar ular 100 foizlik mulk va nazoratga ega bo'lmassalar. Boshqalar esa hech bo'lmaganda nazorat qiluvchi aksiyalar paketiga (ya'ni 51 foizga) ega bo'lmassalar, bunday investitsiyalashdan bosh tortadilar. Biroq, so'nggi yillarda bir necha kompaniya ishtirok etadigan va hech bir tomon nazorat qiluvchi aksiyalar paketiga ega

bo'lmaydigan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha hamkorlik bitimlari (masalan, qo'shma korxonalar) tuzish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari iqtisodchi-olimlari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mazmuniga berilgan ta'riflarda ham korxonalar ustidan nazorat o'rnatish va foyda olish maqsadida bir iqtisodiyot kapitalining o'zga iqtisodiyotga joylashtirilishi markaziy o'rinni egalaydi. Masalan, iqtisodchi-olimlardan Alekseyev, Baranov va Dementyevlarning monografiyasida "to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bevosita yoki bilvosita tarzda bir mamlakatdan boshqa mamlakatga kiritilayotgan kapital ustidan nazorat o'rnatish yoki sezilarli darajada ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'lish" tarzida ifodalangan. Ularning qayd etishicha, aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslar oqimini ta'minlaydi, balki ishlab chiqarish va boshqaruv sohasida yangi texnologiyalar va bilimlarga ega bo'ladilar. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar odatda uzoq muddatga amalga oshiriladi, bu esa oluvchi mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi. To'g'ridan-to'g'ri investorlar ko'pincha o'z tovarlari uchun rivojlangan bozorlarga ega yirik TMK bo'lib, ularning homiyligida xalqaro tovar bozorlariga chiqish osonroq bo'ladi.

Oksyutikning fikricha, "to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uzoq muddatli daromad olish uchun chet elga kapital qo'yishdir. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, to'g'ridan-to'g'ri investor o'z kapitali qo'yilgan obyekt (korxonani) egasi yoki uni nazorat qiladi".

Pozdnyakovning ilmiy ishlarida "to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqini beruvchi korxonalar ulushlari yoki ustav kapitalining kamida 10 foizini nazorat qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan kiritilgan investitsiyalar", sifatida tavsiflangan.

Oblomurodovning doktorlik dissertatsiyasida "to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari – bu xorijiy investorlar tomonidan milliy iqtisodiyotdagi tadbirkorlik va boshqa faoliyat subyektlariga kiritiladigan moliyaviy, moddiy va nomoddiy ne'matlar va ularga doir huquqlar bo'lib, ular foyda (daromad) olish yoki uzoq muddatli manfaat ko'rish maqsadini o'zida aks ettiruvchi xalqaro investitsiya kategoriyasidir", deb ta'riflangan.

Nadirxanovning shu mavzuga bag'ishlangan monografiyasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mazmuni va mohiyati bo'yicha nazariy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan. Olimning fikricha, "xorijiy ishtirokchining korxonaga qo'shgan hissasining miqdori, uning quyi yoki yuqori chegarasi o'z-o'zidan chet el investitsiyasini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar sifatida tavsiflash uchun asos bo'lmaydi, bundan tashqari, bir qator boshqa o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Bu xususiyatlar boshqaruv huquqini qo'lga kiritish, uzoq muddatli investitsiyalash va faoliyatni nazorat qilishdan iborat".

O'zbekiston qonunchiligida "chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari – to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari" tarzida (Qonun, 2019) ifodalangan.

### **Xulosa va takliflar.**

Yuqorida berilgan ta'riflarni tahlil qilish asosida bir necha muhim xulosalarga kelish mumkin: uzoq muddatli o'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlash va ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish maqsadida bir mamlakatdan o'zga mamlakatga yo'naltirilgan moddiy va nomoddiy resurslar; bir mamlakat rezidentlari tomonidan boshqa mamlakatdagi (qabul qiluvchi mamlakat) kompaniyaning aktivlarga egalik qilish va ishlab chiqarish hamda boshqa faoliyatlarini nazorat qilish hamda foyda olish maqsadida joylashtirilgan investitsiyalar; korxonalar boshqaruvini samarali tashkil etishni maqsad qilgan investorning iqtisodiyotidan boshqa iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan korxonalar ustidan nazoratni amalga oshirish, foyda olish va samaraga erishish maqsadida amalga oshiriladigan investitsiyalar; to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investorlarning ulushi qancha va nimalardan iborat bo'lishi kerakligi bo'yicha hanuzgacha yagona yondashuv mavjud emas; xorijiy investorlarning hech qanday kafolatlarisiz

va risklarni o'z zimmalariga olgan holda o'zga mamlakatga kiritadigan investitsiyalari va shu kabilar.

Xorijiy investorlarning uzoq muddatli iqtisodiy manfaatdorlikni o'rnatish va korxonalar boshqaruvi ustidan nazoratni qo'lga kiritish maqsadida boshqa mamlakatda joylashgan korxonaning xo'jalik faoliyatiga hech qanday kafolatlarsiz to'ppa-to'g'ri yoki bevosita kiritgan investitsiyalari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ifodalaydi. Bunda ishtirok etish ulushi (ustav kapitalining yoki ovoz beruvchi aksiyalarining 10 foizi yoki undan ko'proq), maqsadi (uzoq muddatli ishtirok etish va boshqaruvga nazorat yoki ta'sir ko'rsatish) va shakllari (sho'ba korxonalar yaratish, ulush olish, foydani qayta investitsiyalash va h.k.) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning asosiy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

#### ***Adabiyotlar/Lumepamypa/References:***

*Blanchard O. (2021) Macroeconomics. Harlow: Pearson Education.*

*Bodie Z., Kane A., Marcus A. (2022) Investments. New York: McGraw-Hill Education.*

*Brealey R., Myers S., Allen F. (2020) Principles of Corporate Finance. New York: McGraw-Hill Education.*

*Fama E. (2013) Foundations of Finance. New York: Basic Books.*

*Krugman P., Obstfeld M. (2018) International Economics: Theory and Policy. Harlow: Pearson Education.*

*Malikov T.S., Olimjonov O.O. (2019) Moliya. Darslik. Toshkent: Iqtisod-Moliya.*

*Mankiw N.G. (2021) Principles of Economics. Boston: Cengage Learning.*

*Markowitz H. (1959) Portfolio Selection: Efficient Diversification of Investments. New Haven: Yale University Press.*

*O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2019) "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-598-son, 25-dekabr. Available at: <https://lex.uz/docs/4664142>*

*Stiglitz J., Walsh C. (2019) Economics. New York: W.W. Norton & Company.*

*Аскинадзи В.М. (2019) Инвестиции: учебник. Москва: Юрайт, pp. 11–12.*